# MAHALLA TIZIMI VA UNING DETERMINANTLARI: IJTIMOIY NAZORAT, IJTIMOIY TARBIYA VA ZAMONAVIY EHTIYOJLAR

**Rasulov Jamshidbek Maxammadimin o‘g‘li**
**Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi**

***Annotatsiya:*** *Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy munosabatlar tizimida mahalla instituti o‘zining yangi tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlari, vakolat va vazifalari bilan muhim o‘rin egallamoqda. Mazkur maqolada so‘z mahalla tizimi va unga xos determinantlarning ijtimoiy-falsafiy talqini haqida boradi.*

***Tayanch so‘z va iboralar:*** *mahalla, maktab, oila, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy determinant*

## KIRISH

Jahonda ro‘y berayotgan hozirgi ijtimoiy muammolarni hal etish, zamonaviy jamiyatda inson tarbiyasi va ma’naviy yetukligini ta’minlash masalasi tobora dolzarb tus olmoqda. Globallashuv, axborot oqimining kuchayishi, qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar shaxsning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday murakkab ijtimoiy sharoitda oila, mahalla va maktabning an’anaviy hamkorligi va munosabatlari o‘zgarib, yangi ijtimoiy omillar va talablar asosiga qurilmoqda. Mazkur “ijtimoiy-madaniy uchlik” hamkorligi bugungi kunda global kompetensiyalarga ega bo‘lgan inson kapitalini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolish va rivojlantirish, yosh avlodni Yangi O‘zbekiston jamiyati sharoitida faol ijtimoiylashuviga ko‘maklashish, taraqqiy topayotgan jamiyat sharoitlariga mos holda demokratik va erkin tafakkurni, yangicha ong va madaniyatni yanada takomillashtirish, globallashuv va axborot davrining real va potensial tahdillaridan fuqarolar va ayniqsa yoshlarni himoyalash kabi qator yangi funksiyalarni bajarishi lozimligi bilan yanada dolzarblik kasb etmoqda.

Mamlakatimizda mahalla qadimdan shaxsni tarbiyalovchi maskan hamda ijtimoiy yakdillik, mehr-muruvvat, birdamlik va barqarorlik omili bo‘lib faoliyat yuritgan. Yangi O‘zbekistonda mahalla instituti tashkiliy tuzilish jihatdan, mohiyati bilan hamda funksional faoliyati bilan ijobiy qiyofaga kirmoqda. Fuqarolar bilan ishlashning yangicha mexanizmlari ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etilmoqda va samarali natijalarga erishilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyov to‘g‘ri ta’kidlaganiday: “Mahalla va yaxshi qo‘shnichilik o‘zaro uyg‘un qadriyatlardir. Ular jamiyatda insoniy va ijtimoiy kapitalni yanada boyitishga beqiyos hissa qo‘shadi... Barchamiz uchun ham ota, ham ona bo‘lgan mahallaga, shu asosda Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usining yuqoriligi ushbu institut avvalo ijtimoiy birdamlik manbai ekanini ko‘rsatadi”[34]. Mahalla, oila va maktab tizimlari o‘zgarayotgan dunyoda, nafaqat mamlakatning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga xizmat qilishi, balki inson huquqlarini, tenglikni va erkinlikni

[34]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025. https://president.uz/uz/lists/view/8834

ta’minlashga ham qaratilishi kerak. Ijtimoiy o‘zgarishlarning asosi bo‘lgan insoniyatning o‘z-o‘zini anglash, taraqqiyot va ijtimoiy mas’uliyat, oila va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar masalalarini ko‘rib chiqishda yotadi. Har bir o‘zgarish, nafaqat tashqi, balki ichki muvozanatni, individuallik va jamoaviylikni birlashtirishni talab qiladi.

Tadqiqotchilarning keltirishicha: “Chuqur ijtimoiy-falsafiy ildizlarga ega bo‘lgan va xalqning kundalik hayotini tartibga solib kelgan mahalla demokratik poydevorga asoslangan axloq-odob tizimini shakllantiradi. Bu tizim zamon sinovlariga dosh bergan o‘zaro yordam, mehmondo‘stlik, keksalarga hurmat va jamoa a’zolari tengligi tamoyillariga tayanadi. Mahallada yashovchi hech bir inson o‘zini yolg‘iz his qilmaydi, chunki u doimo nafaqat ma’naviy madad, balki zarur moddiy yordamga ham umid qila olgan”[35].Shu sababli, bugungi kunda ham mahallaning ijtimoiy-tarbiyaviy funksiyalarini yanada rivojlantirish, uni ibratva tarbiya maktabiga aylantirish har doim dolzarb vazifa sifatida ko‘riladi.

Darhaqiqat, yoshlarni yuksak ma’naviyat va fazilat egasisifatida voyaga yetishida mahalla institutidan katta mas’uliyat va shijoatni talab qiladi. Insoniyatning ma’naviy yuksalishiga zamin bo‘lguvchi ming yillik ildizlarga ega, turli global jaraayonlarga guvoh bo‘layotgan va o‘zida ham o‘tmish, ham zamonaviy sivilizatsiyani integratsiya qilgan muhim ijtimoiy institut shubhasiz, mahalladir. Mahalla – xalq bilan davlat o‘rtasidagi ishonch ko‘prigidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Biz faoliyatimizning birinchi kunlaridan boshlab barcha ishlarni mahallada, xalqimiz bilan birgalikda tashkil qilib kelyapmiz. Bu tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirdik. Endi yana qo‘shimcha kuch va imkoniyatlar berilmoqda. Bu esa ham vakolat, ham mas’uliyat degani. Mahallalar – davlatimizning eng katta tayanch zamini” [36] deb ta’kidlaganlarida ham ulkan ma’no mujassam. Bizningcha, mahallalar bigungi kunda “islohotlar tashabbuskori” bo‘lib maydonga chiqishi, odamlarning daromad topishida eng muhim tirgak, strategik faoliyat yurituvchi institut bo‘lishi lozim.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha mahalla “yettiligi” faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Mazkur vazifalarning huquqiy kafolati yuzasidan “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlari to‘g‘risida”[37]gi farmonga imzo chekdi. Mazkur normativ-hujjat mahallaning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan *“O‘zbekiston - 2030”* strategiyasi[38]dagi bir qator ustuvor yo‘nalishlar singari xalq irodasiga xizmat qiladigan ijtimoy davlat boshqaruvini hamda jamoatchilik nazoratini takomillashtirish masalalariga alohida qayd etilgani diqqatga sazovordir. Strategiyaning asosiy maqsadi globallashuv davrida aholining turmush tarzini yangi davrga olib chiqish, farovonligini oshirish, hududlar kesimida yuzaga kelayotgan kundalik muammolarni ijobiy

[35]Nosirxo‘jayeva G. Etika.Estetika.T., “TDYuI”.2006 y. –B.63.
[36]Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. T., “Tasvir”. 2016 y. –B. 14.
[37]O‘zbekiston respublikasi Prezidenti farmoni. 2013 yil 21 dekabr.PF-209-son.https://lex.uz/ru/docs/-6705763
[38] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2023 yil 11 sentabr.PF-158-son.

yechimlarini topishda mahallani jamiyat va davlat organlari o‘rtasidagi “sadoqat bog‘lamasi”ga aylantirish zaruratini namoyon etishdir.

O‘zini shu yurt farzandiman degan har bir fuqaro o‘zi va oilasining tadqiri, moliyaviy holati hamda farovonligi yo‘lida mas’uliyatini chuqur his etishi, dangasalik, boqimandalikdan yiroq bo‘lishi lozim. “… tabiiy boshlang‘ichlar ta’siri ostida kamol topib insonga aylanishgina kifoya qilmaydi, chunki inson bo‘lib, insoniy kamolotga erishuvi uchun kasb-hunar zarurdir”[39]. Shu maqsadda, sog‘lom tafakkurni hosil qilishda yoshlar orasida targ‘ibot va tashviqot ishlarini samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, fuqarolarni o‘z hududini obodonlashtirishi, ozoda saqlashi, milliy qadriyatlar, urf-odatlarga hurmat bilan yondashish, shuningdek, mahallalarda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar sonini yanada ko‘paytirish, aholi o‘rtasida o‘zaro hurmat va hamjihatlik muhitini ommalashtirish lozim.

Mahalla har doim o‘zaro ishonch, ko‘mak va himoya munosabatlariga asoslanib ish yuritgan. Odamlar orasida insoniylik kabi qadriyatlar debochasi mahalladan shakllanadi va mustahkam himoya qilinadi. Shu qatorda, mahalla jamiyatni buzuvchi g‘oyalarga qarshi kurashuvchi eng samarali makon bo‘lib kelgan. Chunki, unda ijobiy shakllangan sog‘lom muhit va jamoaviy tafakkur jinoyatchilik, bezorilik, ichkilikbozlik, o‘g‘rilik, fohishabozlik giyohvandlik kabi global illatlarga qarshi mustahkam qo‘rg‘on bo‘ladi.

Bizningcha, bugungi kunda mahalla institutini global jarayonlar fonida yangicha ilmiy-falsafiy dunyoqarashlar orqali tadqiq etish lozim. Bugungi zamonaviylik texnologik rivojlanish, migratsiya va madaniy o‘zgarishlar mahalla kabi ijtimoiy institutlarga yangicha yondashuvlarni qo‘ymoqda. Shuning uchun, mahalla institutiga bir necha falsafiy yondashuvlarni keltirish lozim. Uni ijtimoiy, kommunitaristik, konstruktivistik va postmodern nazariyalar va yondashuvlar bilan tahlil qilish, mahalla tizimini yangi ahamiyatini ochib beradi. Mahalla faqat an’anaviy qadriyatlarni asrashga qaratilgan tizim emas, balki ijtimoiy taraqqiyotga moslashuvchi, yangi vazifalarni bajaruvchi, jamiyat barqarorligini ta’minlovchi institut sifatida rivojlanmoqda. Shu sababli, zamonaviy ilmiy yondashuvlar orqali mahalla institutini yanada rivojlantirish va uning dolzarbligini oshirish muhim vazifalardan biridir.

Birinchidan, sotsiolog tadqiqotchilar mahallani davlatning alohida ijtimoiy tarmog‘i deb qarab, uni jamiyatning barqarorligida alohida o‘ringa ega deb ta’kidlyadi. Sotsiolog olim, E.Durkgeym tomonidan ilgari surilgan “ijtimoiy birdamlik konsepsiyasi”ga ko‘ra, “mahalliy institutlari ijtimoiy birlashuvni ta’minlovchi mexanizmlaridir” [40] , deya ta’riflangan;

Ikkinchidan, mahalla – qadriyatlar va identifikatsiya markazi sanaladi. Olimlar Charlz Teylor va Maykl Sendellar tomonidan jamiyatning birgalikdagi rivojida umumjamoa qadriyatlarini muhimligini ta’kidlaydilar. Ularning qarashlarida shaxs o‘z jamoasi bilan hamjihat yashagandagina farovonlikka erishishi mumkinligi ta’kidlangan. Mahalla aynan shunday qadriyatlarning maarkazi bo‘lib, u insonlarni global davrda yakkalikdan himoya qilishi mumkin. Dunyoda ko‘plab jamiyatlarda “ishonch inqirozi”

[39] Шермуҳамедов Я. “Ўрта Осиё мутафаккирларининг яхшилик ва ёмонлик ҳақидаги қарашлари”. Т.: “Фан”, 1970. - Б.20.
[40] Emil Dyurkgeym “De la division du travail social”. Parij “Félix Alcan” 1893 y. P -20.

hukm surayotgan bir davrda, faqatgina mahalla tizimi odamlarni farovonlik sari birlashtirish institut sifatida dolzarbdir;

Uchinchidan, mahalla – ijtimoiy o‘zgarishlarning boshlanish debochasi. Ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga asosan, ijtimoiy tuzilmalar o‘zgaruvchan va o‘sib boruvchi xusussiyatga egadir. Huddi shunday mahalla tizimi ham zamonaviy tendensiyalarga monand shakllanib, yangilanayotgan jamiyatda o‘z funksiyalarini kengaytirmoqda. Masalan, oldin mahalla ko‘proq e’tiborini diniy va madaniy qadriyatlarga asrash bilan cheklangan bo‘lsa, bugungi jamiyatda esa ijtimoiy himoya, bandlikni ta’minlovchi markaz, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash omili, tadbirkorlikni rivojlantirish subyekti sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda. Shu munosabat bilan mahallani statistik institut sifatida emas, balki jamiyat ehtiyojlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan tizim sifatida ko‘rishimiz mumkin.

To‘rtinchidan, mahalla – milliy identifikatsiya va globallashuv orasidagi tenglik xodisasi. Bir qator faylasuf olimlar, globallashuv oqibatida milli-madaniy chegaralar yo‘qbo‘lib, an’anaviy qadriyatlar tanazzulga uchrayotganini ta’kidlashmoqda. Shu tomondan, mahalla an’anaviy va zamonaviy tendensiyalar orasida tenglikni o‘rnatuvchi tizim sifatida maydonga chiqadi. Bu tizim shaxslarning kurralashuv zamonida o‘zligini yo‘qotmasligi bilan birga, milliy madaniy urf-odatlarni asrab qolishga undaaydi. Zero, mahalla jahon madaniyati bilan o‘zaro aloqadorlikda bo‘lsa ham, o‘z funksiyasini uni zarurat qismini mahalliy sharoitlarga moslashtirishga qaratadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mahalla instituti tarixiy evolyutsiya jarayonida muhim o‘rin egallagan bo‘lib, u jamiyatni o‘zini o‘zi boshqarish tamoyillari asosida shakllantirishda va ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynab kelmoqda. Bugungi kunda ham mahalla tizimi milliy qadriyatlarni asrash, yoshlarni tarbiyalash va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashning asosiy institutlaridan biri sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025. https://president.uz/uz/lists/view/8834
2. Nosirxo‘jayeva G. Etika.Estetika.T., “TDYuI”.2006 y. –B.63.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. T., “Tasvir”. 2016 y. –B. 14
4. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining farmoni. 2013-yil 21-dekabr.PF-209-son. https://lex.uz/ru/docs/-6705763
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2023 yil 11 sentabr.PF-158-son.
6. Shermuhamedov Y. “O‘rta Osiyo mutafakkirlarining yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlari”. T.: “Fan”, 1970. - B.20.
7. Emil Dyurkgeym “De la division du travail social”. Parij “Félix Alcan” 1893 y. P -20.